

Qalandarova Bonu Shermamat qizi

Urganch davlat universiteti
pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
bonukalandarova5@gmail.com

DEVIANT XULQLI O'SMIRLARDA EMOTSIONAL SOHA NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada deviant xulqli o'smirlarda emotsional soha namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini o'rganish taxlili keltirilgan. Deviant xulq o'smirlarni xulqidagi salbiy illat bo'lib ularni yuzaga kelishi yosh xususiyatlari bilan bog'liq. Ushbu maqolada kuzatish, suhbat va Bass-Darkining agressivlik metodikasidan foydalanilgan holda deviant xulqli o'smirlarni emotsional holatlarini tekshirish ko'rsatkichlari matematik – statistik tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Deviant xulq, agressiya, autoagressiya, tajovuzkorlik, izolyatsiya, nazoratsizlik, maxfiylik, keskin kayfiyat o'zgarishi, huquqbuzarlik, jismoniy shikast yetkazish, ziddiyat, g'azab, majburlash, salbiy baholash, tahdid.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ СФЕРЫ У ПОДРОСТКОВ С ДЕВИАНТНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ

Аннотация. В статье представлен анализ исследования психологических особенностей проявления эмоциональной сферы у подростков с девиантным поведением. Девиантное поведение – негативное нарушение в поведении подростков, возникновение которого связано с возрастными особенностями. В данной статье математически и статистически проанализированы показатели проверки эмоционального состояния девиантных подростков с помощью наблюдения, беседы и метода агрессии Басса-Дарки.

Ключевые слова: девиантное поведение, агрессия, аутоагрессия, агрессия, изоляция, бесконтрольность, скрытность, резкая смена настроения, правонарушение, физический вред, конфликт, гнев, принуждение, негативная оценка, угроза.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE MANIFESTATION OF THE EMOTIONAL SPHERE IN ADOLESCENTS WITH DEVIANT BEHAVIOR

Annotation. The article presents an analysis of the study of the psychological characteristics of the manifestation of the emotional sphere in adolescents with deviant behavior. Deviant behavior is a negative disorder in the behavior of teenagers, and its occurrence is related to age characteristics. In this article, the indicators of checking the emotional states of deviant teenagers using observation, conversation and Bass-Darke's method of aggression were analyzed mathematically and statistically.

Key words: Deviant behavior, aggression, autoaggression, aggression, isolation, lack of control, secrecy, sudden mood swings, delinquency, physical harm, conflict, anger, coercion, negative evaluation, threat.

Kirish. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitratning “Xalqning aniq maqsad sari xarakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-xurmat topishi, jaxongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asr bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq” deb yozgan hikmatli so'zlarini yodga olishimiz zarur. Haqiqatan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda. Bugungi keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla faollari bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarni yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu borada uyushmagan yoshlar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga

tayanamiz. Farzandlarimiz ayniqsa, qiz bolalarning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini, xorijiy tillarni egallashlari, har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lib, hayotdan munosib o'rin topishlari uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.[1]

Yunon mutafakkirlari (Arastu, Demokrit, Platon, Fales va boshq.) ijodkorlikni intuitsiyani ichki ko'rish xususiyati, aqlning oliy qobiliyati sifatida ko'rib chiqishgan.[6] Shuningdek, Prezidentimiz 2016-yil yakunlarida "Eng avvalo yoshlar va aholi o'rtasida mamlakatimizning boy tarixi, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish ustuvor vazifalardan hisoblanadi", deb takidlab o'tdi. [2]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston psixologlari deviant xulq-atvorli bolalarda xulq buzilishlarini yuzaga kelish sababini **yosh xususiyatlariga** bog'lagan holda o'rgangan. O'zbekiston psixologiyasining yirik namoyondalaridan biri E.G'oziyev bevosita deviant xulqni o'rganmasada, o'smir xulqidagi o'zgarishlarni yosh xususiyatlariga bog'lagan holda tadqiq qilgan. Masalan, "O'quvchilarda xulqi og'ishganlik darajasini aniqlash" anketasi E.G'oziyev tomonidan yaratilgan.[3]

O'zbekiston psixologiyasining yana bir namoyandasi G'.B. Shoumarov tomonidan o'smirlik davrida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan deviant xulq-atvorni keltirib chiqaradigan sabablar o'rganilgan. Uning fikricha voyaga yetmaganlarni huquqbuzarligi eng keng tarqalgan va deyarli barcha avlodlarda an'anaviy tarzda kuzatilayotgan sabablardan biri bu yoshlar tomonidan o'zini shaxsini tasdiqlashni buzilgan formada ifodalanishidir. Namoyishkorona, ya'ni - demonstrativ chekish, ichish, o'qituvchi va ota-onalar bilan qo'pol muamola qilish, kattalarga quloq solmaslik, o'z bilganidan qolmaslik, yosh jihatdan inqiroz davrini boshdan kechirishi asosida o'zini katta qilib ko'rsatish hissi yotadi. Huquqbuzarlik xam bu yosh davrda yetarlicha uchraydi. Ushbu yosh davrida bolalar o'zi anglamagan holda ota-onalarini tarbiyachilik qobiliyatini sinovdan o'tkazadilar. Ba'zi guruh bolalar o'qishida doimo muammolari bo'lgani sababli o'z shaxsini tasdiqlashga, sinfda ma'lum reytingga ega bo'lish motivida huquqbuzarlikka qo'l uradilar. Yoshlarda huquqbuzarlikni yuzaga kelishi va ko'payishida turli filmlarda kriminalni ideallashtirish ijobiy obraz sifatida ko'rsatish kuchli ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli filmlarni yaratishda ayniqsa internet orqali yoshlarimiz turli mazmun g'oyadagi filmlarni ko'rishi mumkinligini hisobga olib, ularni ko'rishni ta'kidlash emas, balki ulardan kerakli narsani olishni, ko'rganlarni yoshlar o'z ongida axloqiy, aqliy, mantiqiy, insoniy - filtdan o'tkazishga o'rgatishimiz lozim.[4]

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda kuzatish, suhbat metodlari, Bass-Darkining agressivlik metodikasi.

Tahlil va natijalar. Deviant xatti-harakatlar ko'pincha tajovuzkorlik, izolyatsiya, nazoratsizlik, maxfiylik, keskin kayfiyat o'zgarishi bilan namoyon bo'ladi. Biroq, bu fazilatlarining hammasi salbiy emas. Deviant xatti-harakatlarning xususiyatlari ijtimoiy munosabatlar, aloqalar va jarayonlarining barqarorligini buzish bilan tavsiflanadi. Deviant xulqqa moyil bolalar o'z qoidalarini va qonunlariga ko'ra, jamoatchilikdan farq qiladi. Biroq, har doim ham deviant xulq-atvorli o'smirlar salbiy xususiyatlarga ega bo'lmaydi. Misol uchun, bolalar qarindoshlari va do'stlaridan yoki ularning haddan tashqari g'amxo'rligi tufayli yetarlicha e'tiborga erishadi. Xulqiy buzilishlarni tuzatish uchun sababni bartaraf etish kifoya. Shu o'rinda biz deviant xatti-harakatlarga taalluqli asosiy guruhlar va ularning xususiyatlarini ko'rib chiqamiz:

Deviant xulqli o'smirlardagi emotsional sohalardan biri agressiya (tajovuzkorlik). Ular imtiyozlarni, ustuvorlikni, hukmronlikni, huquqlarni egallash uchun turli majburlash shakllaridan foydalanadi. Zo'ravonlik shakllari turlicha bo'ladi: jismoniy shikast yetkazish, ziddiyat, g'azab, majburlash, salbiy baholash, tahdid va aqliy-psixikaga, hissiy sohaga doimiy yoki uzoq muddatli ta'sir. Agressiyaning yashirin shakllari kontaktlardan, kimgadir zarar etkazish, o'zingizga zarar etkazish va o'z joniga qasd qilish uchun harakatsizlikdan voz kechish bilan ifodalanadi. Agressiyaning ichki vakili g'oyalar, fantaziyalar va ta'sirlar bo'lishi mumkin. Misol uchun, bir kishi birovga nisbatan zo'ravonlik g'oyasini ko'tarishi mumkin, u jinoyatchi bilan faqat uning fantaziyalarida yoki kuchli ta'sirga duch kelishi mumkin. Agressiv tortishish, tirnash xususiyati, hasad, nafrat, g'azab kabi turli xil agressiv qabul qiluvchi ta'sirlar orqali o'zini namoyon qilishi mumkin. Agressiv ta'sirlarning intensivligi ularning psixologik funktsiyasi bilan bog'liq. Agressiya avtonomiyani himoya qilish, tahdid yoki azob-uqubat manbasini bartaraf etish, ehtiyojlarni qondirish yo'lidagi to'siqlarni olib tashlash, ichki mojaroni hal qilish, o'z-o'zini hurmat qilish kabi muhim vazifalarni bajarishi mumkin. Shu bilan birga, tajovuz uning egasi tomonidan qisman yoki to'liq amalga oshirilmasligi mumkin. Eng kuchli va

murakkab tajovuzkor ta'sirlardan biri shubhasiz nafratdir. Nafrat bilan qo'lga kiritilgan odamning eng muhim maqsadi tajovuz ob'ektini yo'q qilishdir. Muayyan sharoitlarda nafrat va qasos olish istagi kam rivojlangan bo'lishi mumkin. Agar ular barqaror xarakterga ega bo'lsa, psixopatologiya darajasiga erishish haqida gapirishimiz mumkin. Psixopatologiyani "yengil" holatlarida nafrat qattiq axloqiy taqiqlar va o'z g'oyalari agressiv ravishda tasdiqlash shaklini oladi. Bundan tashqari, nafrat hokimiyatni egallash, bo'ysunish yoki kamsitishga bo'lgan ehtirosli istaklarda namoyon bo'lishi mumkin.

Deviant xulqli o'smirlardagi emotsional sohalardan biri o'z joniga qasd qilish harakati - autoagressiyani o'z ichiga oladi. Bunday harakat odatda o'smirlar hayotida bir marta sodir bo'ladi. Autoagressiya ta'sir holatida amalga oshiriladi. Ko'pincha juda salbiy hayot sharoitlari yoki muhim axloqiy beqarorlik sabab bo'ladi. Sabablar xilma-xil bo'lishi mumkin: janjal, haqorat, boshqalarning qo'pol ta'siridan shaxsning "o'zini himoya qilishi", yaqin odamlarning yo'qligi. A. E. Lichko tomonidan tekshirilgan o'smirlar orasida 32% 17 yoshli, 31%-16 yoshli, 21% - 15 yoshli, 12%-14 yoshli, 4% - 12-13 yoshli o'smirlarda o'z joniga qasd qilish urinishlari kuzatilgan [35]. Ayniqsa, qizlar uchun ko'plab urinishlar namoyishkorona. O'limga jalb qilish hayotning o'zi qolib, hayotning qiyinchiliklarini hal qilishga urinishdan boshqa narsa emas.

Deviant xatti-harakatlarning turlari va shakllari yomon odatlarda namoyon bo'ladi, ularning zarari yoshlar tomonidan tushunilmaydi. [5]

Deviant xulq-atvoriga moyil sinaluvchilarni emotsional sohasining psixologik xususiyatlarini aniqlash davomida kuzatish metodidan keng foydalanildi. Bizning asosiy tadqiqotlarimiz 35 nafar o'smir o'quvchidan iborat bo'lgan guruhda olib borildi. Ulardan 14 nafari deviant xulqqa moyilligi bo'lgan, profilaktik hisobda turuvchi o'smirlar guruhi. Bu guruhni biz "Tajriba" guruhi deb nomladik. Shuningdek, 21 nafar oddiy deviant xulq-atvoriga moyillik kuzatilmagan o'quvchilardan tashkil topgan guruh. Biz bu guruhni "Nazorat" guruhi deb nomladik. Tadqiqotimiz boshlanishida dastlab o'smirlarni qiynayotgan muammolarni o'rganish maqsadida suhbat metodidan foydalandik. Bu metod inson psixikasini o'rganishda qo'llaniladi.

O'smir yoshidagi bolalarning individual his-tuyg'ulari, nerv sistemasining tashqi ifodalari, xulq-atvori, nutq faoliyati va hokazolarini o'rganish maqsadida kuzatish metodidan foydalandik. Kuzatish metodi yordamida o'smirlar xulqidagi turli xil xulq o'g'ishlari aniqlanadi. Bulardan tashqari, qo'lning titrashi, asabiylashish, nutqning buzilishi, hissiyotning beqarorlashuvi ham inson ruhiyatidagi o'zgarishlar bo'yicha ma'lumot beradi.

O'smirlar hayotida deviantlikning bir turi agressivlikka xos xulq-atvor shakllari tez-tez uchrab turadi. Shaxsga xos destruktiv mayllar motivatsion tajovuzda (bunda tajovuzkor harakatlarni amalga oshirishning o'zi ahamiyatli bo'ladi), namoyon bo'lgani tufayli amaliy psixologlarni aynan shu tipdagi tajovuzkor xulq-atvor qiziqtirishi kerak. Destruktiv mayllar darajasini tashhislab, ochiq motivatsion tajovuzning ro'yobga chiqishini bashorat qilish mumkin bo'ladi. Bunday imkoniyatni yaratuvchi tashhis vositalaridan bir Bass-Darki so'rovnomasidir. Bass-Darki metodikasi sinaluvchi motivatsion sohasining xususiyatlari va bu insonga xos tajovuzkor xulq-atvor shakllarini aniqlash imkoniyatini beradi. A.Bass va A.Darki tajovuzkorlik va adovat mazmuniga ega reaksiyalarning bir necha shakllarini ajratib ko'rsatishadi. Biz ham o'smirlarda deviant xulq bilan tajovuzkorlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish maqsadida tadqiqotlarimizda A.Bass-A.Darkining tajovuzni o'rganishga bag'ishlangan metodikasidan foydalandik, chunki bu metodika psixologik tadqiqotlarda, tashhis amaliyotida eng ko'p ishlatiladigan klassik metodikalar sirasiga kiradi va o'smirlar tajovuzi bo'yicha to'la ma'lumot bera oladi. A.Bass-A.Darki metodikasi xorijiy va mahalliy psixologlar tomonidan shaxsdagi emotsional jihatlarni, ya'ni, tajovuzkorlikni, salbiy hissiyotlarni diagnostika qilish uchun keng qo'llanilgan. Mazkur metodika 75 ta mulohazadan iborat bo'lib, tekshiriluvchilarning javoblari maxsus kalit yordamida ishlab chiqiladi va kalitga asosan sakkizta ko'rsatkich bo'yicha ma'lumotlar olinadi. Bu ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

1. Jismoniy tajovuz – boshqa bir shaxsga nisbatan jismoniy harakatlar qilish.
2. Bilvosita tajovuz–boshqa odamga bilvosita yo'naltirilgan yoki hech kimga yo'naltirilmagan tajovuz.
3. Tajanglik – arzimagan bahona yoki sabab bilan ham salbiy –hissiyotlarini ko'rsatish (qo'pollik, tez jahl chiqishi).
4. Negativizm –mavjud qonun-qoidalarga shunchaki qarshi chiqishdan tortib,ular bilan kurashishgacha bo'lgan reaksiyalar.

5. Xafagarchilik – boshqalardan ularning xaqiqiy yoki xayoliy xarakatlari sababli nafratlanish va ularga xasad qilish.

6. Shubhalanuvchanlik – extiyotkorlik va boshqalarga ishonchsizlikdan tortib boshqalarning yomon niyatda ekanligiga qattiq ishonish.


7. Verbal tajovuz – negativ hissiyotlarini soʻz yordamida ifodalash (baqirish, janjallashish, tahdid qilish, soʻkish, qargʻash).

8. Aybdorlik hissi – subʼektning oʻzini yomon inson deb oʻylashi, atrofidagilarga zarar keltirishi haqidagi oʻy-fikrlari hamda vijdon azobidan qiynalishi.

Metodikani oʻtkazish jarayonida tekshiriluvchilarga quyidagicha yoʻriqnoma berildi: “Quyidagi mulohazalarni diqqat bilan oʻqing va sizga mos kelgan mulohazaning qarshisiga “+” belgisini, sizningcha notoʻgʻri boʻlgan mulohaza toʻgʻrisiga “-” belgisini qoʻying. Savollarni koʻp oʻylamasdan haqqoniy javob berishga harakat qiling”. Metodikaning kalitiga koʻra baʼzi savollarda “ha” javobiga, baʼzilarida esa “yoʻq” javobiga bir ball beriladi.

1-jadval. A.Bass-A.Darkining “Tajovuzkorlikni oʻrganish” metodikasi boʻyicha olingan natijalari.

№	Shkalalar	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
		oldin	keyin	oldin	Keyin
1	Jismoniy tajovuz	68%	50%	46%	46%
2	Bilvosita tajovuz	65%	48%	40%	40%
3	Tajanglik	56%	48%	43%	43%
4	Negativizm	67%	51%	48%	48%
5	Xafagarchilik	52%	49%	38%	38%
6	Shubhalanuvchanlik	71%	55%	44%	44%
7	Verbal tajovuz	72%	52%	45%	45%
8	Aybdorlik hissi	39%	35%	37%	37%



1-rasm. A.Bass-A.Darkining “Tajovuzkorlikni oʻrganish” metodikasi natijalar tahlili diagramma koʻrinishida.

Tadqiqotimizda oʻsmirlik davrida deviant xulqqa tajovuzkorlikning taʼsirini oʻrganayotganimiz uchun biz asosan jismoniy tajovuz, bilvosita tajovuz, negativizm hamda verbal tajovuz koʻrsatkichlari boʻyicha olingan maʼlumotlarni tahlil qildik. “Jismoniy tajovuz” shkalasi boʻyicha oʻrtacha arifmetik qiymat 68% va 46% ni tashkil etgan boʻlib, bunday holatlar oʻsmirlar koʻproq jismoniy kuchlariga tayanishlari koʻrsatadi. Shuningdek, ular uchun biror bir vaziyatni hal qilishning muhim yoʻllaridan biri bu urishish, janjallashishda deb biladilar.

Maʼlumki, sinalluvchilar guruhiga nazar tashlaydigan boʻlsak, bilvosita tajovuz “Tajriba” guruh sinalluvchilarida yuqori (65%) ekanligi hamda “Nazorat” guruh sinalluvchilarida esa ahamiyatli tarzda past (40%) koʻrsatkichga ega ekanligi maʼlum boʻldi. Bu ulardagi tajovuzning shunday bir koʻrinishidiki, bu tashqi taʼsirlarga nisbatan tajovuzkorlik toʻgʻridan-toʻgʻri ochiq holatda boʻlmay balki, yashirin tarzda amalga oshirishini ham koʻrishimiz mumkin. Metodikaning navbatdagi shkalasi

negativizm sinaluvchilarda ahamiyatli ko'rsatkichlarni tashkil qiladi. Unga ko'ra, "Tajriba" guruh o'smirlarida 67% va "Nazorat" guruh o'smirlarida 48% ni tashkil qiladi. Bu esa o'z navbatida mazkur yosh davr uchun xos bo'lgan xususiyat deyishimiz mumkin. Shuningdek, negativizm juda kichik ta'sirga nisbatan ham negative javob berishga tayyorlik (qiziqqonlik, qo'pollik) kabi jarayonlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, o'smirlik davrining psixologik xususiyatlarini hisobga oladigan bo'lsak, bunday holatni bo'lishi tabiiy holatdir. Metodikaning navbatdagi shkalasi verbal tajovuz sinaluvchilar guruhida o'ziga xos o'rinda namoyon bo'lib, ahamiyatli ravishda ortganligi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, sinaluvchilarning natijalariga ko'ra, "Tajriba" guruh o'smirlarida 72% yuqori ekanligi va "Nazorat" guruh o'smirlarida 45% ni past ko'rsatkich tashkil qilganligi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, ko'rsatkichlarning bu tarzda namoyon bo'lishi ular kamol topayotgan muhitga, atrofdagilarning munosabatlariga, jamiyat tomonidan qo'yilayotgan talablar tizimiga bog'liqligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalaridan ko'rish mumkinki, shubhalanuvchanlik –kishilarga nisbatan ishonchsizlik va ehtiyotkorlikdan tortib to kishilar tomonidan zarar yetkazish rejalashtirilmoqda yoki zarar keltiradi, deb ishonishga qadar bo'lgan diapozonni qamrab oladi. O'z navbatida o'smir shaxsi nafaqat o'zidan, balki o'zgalardan ham shubhalanish, atrofdagilarga ishonmaslik kabi xislatarni o'zida namoyon qiladi. Natijalarga ko'ra, badgumonlik "Tajriba" guruh o'smirlarida 71% va "Nazorat" guruh o'smirlarida 44% ni tashkil qilib, yoshga bog'liq ravishda ortganligini ko'rishimiz mumkin. O'smirlik davrida shaxs tomonidan doimiy ravishda kutilgan yoki kutilmagan tarzda qonun-qoida buzish holatlari uchrab turadi. Bu esa o'z navbatida qilgan ishidan ta'sirlanish, uyalish, aybdorlikni his qilishi ma'lum ma'noda ahamiyatsiz ko'rinishga egaligi bilan belgilanadi. Ta'kidlash joizki, aybdorlik hissi "Tajriba" guruh o'smirlarida yuqori 39 % ni tashkil qilsa, "Nazorat" guruh o'smirlarida 37% ko'rsatkich qayd qilinadi. Bu esa o'z navbatida jamiyatdagi turli xulq-atvor normalarini buzilish ular uchun odatiy holga aylangan bo'lib, mazkur narsalar uchun ular o'zlarida aybdorlikni his qilmaydilar. Tajanglik va xafagarchilik shkalalari "Tajriba" guruhda yuqori ko'rsatishga, "Nazorat" guruh sinaluvchilarida esa sezilarli darajada past ko'rsatkichni tashkil qildi. Bu esa o'smirlardagi arzimagan bahona yoki sabab bilan ham salbiy –hissiyotlarini ko'rsatishi, shuningdek boshqalardan ularning haqiqiy yoki xayoliy xarakatlari sababli nafratlanish hissiga ega ekanligi aniqlandi. Agressivlikni o'rganish metodikasi o'smirlarning tajovuz darajasini aniqlaydigan klassik metodikalardan biri hisoblanib, o'smirlar agressiyasini aniqlashda keng qo'llanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Kontitutsiyasi 24 yiliga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" 2016. 7 dekabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T. O'zbekiston, 2017.-102b
3. G'oziev E. G', Jabborov A. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi T-2003 y. 432-bet
4. Shoumarov G'.B. "Voyaga yetmagan yoshlarda huquqbuzarlikning ijtimoiy-psixologik sabablari" nomli maqola. T.2018. b138.

Bibliografik ma'lumotlar.

5. <https://psylib.org/vidy> -deviantnogo-povedeniya-i-ikh-karakteristika / © psixologiya kutubxonasi psylib.org
6. Latipova, U. (2023). TALABALARDA IJODIY FAOLLIK MOTIVATSIYASI NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK MEZONLARI. TISU Ilmiy Tadqiqotlari Xabarnomasi, 1(2), 193–195. извлечено от <https://scientific.tues.uz/index.php/BSRTUES/article/view/73>